



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI REKTORINING
BUYRUG'I**

2023-yil 16-iyun

Nº 88

Urganch sh.

**Urganch davlat universitetida binolarni
qurish va ta'mirlash ishlari sifati
bo'yicha jamoatchilik komissiyasini
tuzish to'g'risida.**

Urganch davlat universiteti rektoroldi kengashining 2023-yil 17-maydag'i №28-sonli majlis bayonnomasi ijrosini ta'minlash hamda korrupsiyon xavf-xatarlarni oldini olish va universitet hududida binolarni yangidan qurish, rekonstruksiya qilish, mukammal va joriy ta'mirlash, shuningdek, obodonlashtirish ishlarini tizimli monitoringini olib borish maqsadida:

B U Y U R A M A N:

1. Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektori A.Atajanovga hamda Texnika fakulteti dekani M.Qurbanovga:

- Universitet hududida binolarni yangidan qurish, rekonstruksiya qilish, mukammal va joriy ta'mirlash, shuningdek, obodonlashtirish ishlarini tizimli monitoringini olib borish, qurilish ishlarini o'z muddatida va sifatli amalga oshirilishini ta'minlash maqsadida Texnik foydalanish va xo'jalik bo'limi muhandislari, Texnika fakulteti qurilish kafedrasi va arxitektura kafedrasi malakali mutaxassislaridan iborat jamoatchilik komissiya tarkibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin:

2. Komissiya tarkibiga quydagilar yuklatilsin:

- qurilish ishlari davomida komissiya a'zolari tomonidan har oyda ta'mirlash ishlari olib borilayotgan ob'ektida qilinayotgan ishlar sifatini nazorat qilish

- aniqlangan kamchiliklar yozma ravishda qurilish ishlarini olib borayotgan korxona rahbariga berilsin va universitet rektoroldi kengashida muhokamaga qo'yilib, yuzaga kelgan kamchiliklarni me'yoriy hujjatlar asosida sifatlari qilib tuzatish choralarini ko'rish:

- qurilish ishlari yakunlangandan so'ng belgilangan muddatlarda ob'ektni qabul qilib olishda komissiya yakuniy xulosasi inobatga olinsin.

3. Devonxona mudiri (M.Satimova)ga mazkur buyruqni o'rnatilgan tartibda tegishli bo'limlarga yetkazilishini ta'minasin.

- Ushbu buyruq ijrosining nazorati moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektor A.Atajanov zimmasiga yuklatilsin.

ASOS: Urganch davlat universiteti Rektoroldi kengashining 2023 yil 17 maydag'i №28-sonli majlis bayonnomasidan ko'chirma, O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi bilan Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi o'rtasida 2022-yil 25-fevralda tasdiqlangan "Yo'l xaritasi"ning 11-bandi.



B. Abdullayev



Urganch davlat universiteti rektorining
2023-yil “16” igeen
88-sonli buyrug‘iga ilova

**Texnika fakulteti qurilish kafedrasi va arxitektura kafedrasi malakali mutaxassislaridan
iborat jamoatchilik komissiya
TARKIBI**

1	Atajanov Alisher	Moliya va iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor, komissiya raisi
2	Siddiqov Marat	Bosh muhandis, a’zo
3	Axmedov Qodir	Qurilish kafedrasi mudiri, a’zo
4	Tojiev Yusufboy	Qurilish kafedrasi katta o‘qituvchisi, a’zo
5	Matnazarov Ilhom	Qurilish kafedrasi o‘qituvchisi, a’zo
6	Sovutov Ravshan	Qurilish kafedrasi kata o‘qituvchisi, a’zo
7	Saidjon Rajapov	Arxitektura kafedrasi o‘qituvchisi a’zo
8	Kuryozov Ulug‘bek	1-toifali muhandis, a’zo
9	Baxtiyorov Mirjalol	1-toifali muhandis, a’zo

*Mas’ul xodimlarning xizmat vazifasi o‘zgargan taqdirda ushbu vazifaga yangi tayinlangan
shaxs mas’ul xodim hisoblanadi*